

5-10-2019

CHILDREN'S MOBBING AND HELPING PSYCHOLOGICAL INJURED CHILD AT SCHOOL

Dilorom Saliyeva
Kokand Pedagogikal Institut

Nozima Gofurova
Kokand Pedagogikal Institut

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Saliyeva, Dilorom and Gofurova, Nozima (2019) "CHILDREN'S MOBBING AND HELPING PSYCHOLOGICAL INJURED CHILD AT SCHOOL," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 1 , Article 48. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss1/48>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

BOLALAR MOBBINGI VA MAKTABDA TAJOVUZ QURBONIGA AYLANGAN BOLAGA PSIXOLOGIK YORDAM BERISH.

Saliyeva Dilorom Abdullayevna

Qo'qon DPI Pedagogika –psixologiya kafedrası mudiri psixol.f.n. dotsent

G'ofurova Nozima, talaba.

***Annotatsiya.** Maqolada bolalar mobbing va maktabda tajovuz qurboniga uchragan bolalar, ularning ruhiy holati, mobbing tirlari, tajovuz turlari, ular bilan pedagog psixologning olib boradigan ishlar mazmuni mohiyati yoritilgan.*

***Tayanch so'zlar:** mobbing, og'zaki mobbing, jismoniy mobbing, boykot, zo'ravonlik, emotsional zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik, jismoniy jarohat, uy bolalari shaxsining deformatsiyasi, o'z-o'zini anglash, "men" obrazi, psixoterapiya, konsultatsiya.*

CHILDREN'S MOBBING AND HELPING PSYCHOLOGICAL INJURED CHILD AT SCHOOL.

Saliyeva Dilorom Abdullayevna

Kokand Pedagogikal Institut Head of the department of pedagogy-psychology

psychologist senior lecturer,

Nozima Gofurova, student

***Abstract.** Mobbing of children and help psychological injured child at school, psychological conditions kinds and written about the meaning of works of pedagogical psychologist with them in this article.*

***Key word's:** mobbing, oral mobbing, emotional mobbing, physical mobbing, physical injure mobbing, to mind the word "I", consultation.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОМОЩЬ РЕБЁНКУ КОТОРЫЙ СТАЛ ЖЕРТВОЙ МОББИНГА И АГРЕССИИ В ШКОЛЕ.

Салиева Дилором Абдуллаевна

Кокандский педагогическая институт заведующая кафедры «Педагогика и психологии» кандидат психологических наук, доцент

Нозима Гофурова, студентка.

***Аннотация.** В статье рассматривается вопрос о том, как дети становятся жертвами моббинга и агрессии в школе, их психическое состояние, типы моббинга, виды агрессии суть работы педагога- психолога против их устранения.*

***Ключовые слова:** моббинг, вербальный моббинг, физическая моббинг, бойкот, насилие, эмоциональные насилие, физическая травма, деформация личности домашних детей, самосознание, образ «Я», психотерапия, консультация.*

Mobbing bu jamoada bolaga ruhiy bosim o'tkazishning bir shaklidir. Sinfdozlar orasidagi mobbing juda ko'puchraydi. Bolalar ko'pincha boshqalardan nimasi bilandir ajralib turadigan bolalarga bosim o'tkazishadi.

Norvegiyalik psixolog Erling Rulanning fikricha, ijtimoiy mobbingning quyidagi turlari mavjud:

1) Og'zaki mobbing. Qurbon doimo haqoratlar, masxara-mazahlar va xo'rlanishlarga uchraydi. Ba'zan aytilgan qo'pol gap urgandan ko'ra qattiqroq ta'sir qiladi, shuning uchun ham og'zaki taxqirlashlarga uchragan bola depressiyaga duchor bo'ladi va stresslar ta'sirida bo'ladi.

2)Jismoniy mobbing. Mobbingning bu turiga jismoniy kuch ishlatishlar ya'ni tepishlar, mushtlashishlar xosdir. Bu kabi xo'rlanishga yo'liqqan bola yaxshi jismoniy kuchga ega bo'lmaganliklari sababli ruhan va jismonan aziyat chekadilar.

3)Boykot-gaplashmaslik, umuman aloqani uzish. Mobbingning bu shakli ko'proq qiz bolalar jamoasida uchraydi. Qizlar jismoniy kuch ishlatishga moyil bo'lmaganliklari sababli, ular o'z qurbonlarini e'tiborsiz qoldirishlari, jamoaga qo'shmaslik yoki g'iybat qilish orqali jazolashadi. [2, 204].

Bolalar mobbingi bilan birga maktabdagi zo'ravonlikliklar ham mavjud. Maktabdagi zo'ravonlik - bu bolalar orasida yoki o'qituvchilarning o'quvchilarga yoki juda kam uchrovchi xolat-o'qituvchilarning o'quvchilarga nisbatan kuch ishlatuvchi zo'ravonlik turi. Maktabdagi zo'ravonlik emotsional va jismoniyga ajratiladi.

Emotsional zo'ravonlik jabrlanuvchida emotsional zo'riqishni yuzaga keltiradi, uni xo'rlaydi va o'z-o'ziga bo'lgan bahosini pasaytiradi. Emotsional zo'rlik turlari quyidagilardan iborat:

1. Boshqa bolalar oldida xaqoratlash, mashara qilish, laqab qo'yish, to'xtovsiz ogohlantirish, bahoning ob'ektiv emasligi, ustidan kulish va boshqalar;

2. Izolyasiya, jabrlanuvchi bilan muloqotdan bosh tortish (bola bilan o'ynashni rad qiladilar, bitta partada o'tirishni xoxlamaydilar, tug'ilgan kunlarga taklif qilmaydilar,...);

Jismoniy zo'rlik ostida o'quvchiga nisbatan jismoniy kuch ishlatish natijasida jismoniy jarohat olish ehtimoli mavjud xolat tushuniladi. Jismoniy zo'rlikka-zarb bilan urish, kaltaklash, tarsaki tushirish, narsalarini olib qo'yish va buzish kabilar kiradi.

Odatda emotsional va jismoniy zo'rlik birgalikda keladi. Jabrlanuvchi istalgan bola bo'lishi mumkin, ammo odatda bunga kuchsizroq yoki boshqalardan ajralib turuvchilarni tanlashadi. Bunga quyidagi bolalar tushib qoladi:

➤ jismoniy yetishmovchiligi mavjud bolalar - ochki taqadiganlar, qulog'i past eshituvchilar yoki harakatida buzilishi borlar; hulqi bilan ajralib turuvchi - kamgap yoki impulsiv hulqli bolalar; tashqi ko'rinishi bilan ajralib turuvchi - seppilli, qulog'i katta, oyog'i qiyshiq, bosh shakli, tana og'irligi alohida bo'lgan bolalar; ijtimoiy malakalari yetarlicha rivojlanmaganlar;

➤ maktab oldida qo'rquvi mavjudlar;

➤ jamoa hayotida tajribasi yo'qlar (uy bolalari);

➤ kasalliklari mavjud bolalar - epilepsiya, tutqanoq, duduqlanish, enurez, enkoprez, nutq buzilishlari - dislaliya, disgrafiya, dileksiya, diskalkuliya va boshqalar...

➤ intellekti past va ta'lim olishga qiynaluvchi bolalar.

Bolalardagi zo'ravonlikdan keyingiasozatlarvazo'ravonlikdan keyingi paydo bo'luvchi buzilishlar ishga yaroqlilik darajasini barcha sohalarini qamrab oladi. Ular shaxsni kelajakda rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi turg'un shaxsiy o'zgarishlarga olib

keladi. Bolalarga qattiq va beshafqat munosabatning yaqin va kelajak oqibatlari ajratiladi.

Yaqin oqibatlarga quyidagilar kiradi: jismoniy jarohat va zarar yetkazish, shuningdek, miya chayqalishi sindromi uchun xarakterli bo'lgan bosh og'rig'i, qayd qilish, xushdan ketish yosh bolani yelkasidan ushlab qattiq silqitganda rivojlanadi. Yuqorida aytilgan belgilardan tashqari, bu sindromda ko'zga qon quyilishi kuzatiladi. Yaqin oqibatlarga shu qatorda har qanday agressiyaga, ayniqsa jinsiy zo'ravonlikka javoban paydo bo'luvchi o'tkir psixik buzilishlar ham kiradi. Bular qo'zg'aluvchanlik, qayergadir qochishga, berkinishga intilish, yo chuqur tormozlanish, tashqi berfarqlik ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Biroq ikki holatda ham bola qo'rquv, vahima va nafratni o'tkir qayg'urish bilan boshdan o'tkazadi. Katta yoshdagi bolalarda o'zidan qoniqmaslik hissi bilan bog'liq og'ir depressiya rivojlanishi mumkin.

Kelajak oqibatlarga quyidagilar kiradi: jismoniy va psixik rivojlanishdagi buzilishlar, turli somatik kasalliklar, shaxsiy va emotsional buzilishlar. Jismoniy va psixik rivojlanishda kuzatiladigan buzilishlar quyidagilardan iborat.

1. Jismoniy jazo og'ir bo'lgan, bola shaxsiga qaratilgan so'kish "tarbiya metodi" hisoblangan yoki e'tibor, mehrdan mahrum qilingan bolalar masalan, ota-onasi alkogolik bo'lgan oilalarda yashovchi ko'pchilik bolalarda jismoniy va nerv-psixik rivojlanishida kechikish belgilari mavjud bo'ladi.

2. Emotsional va jismoniy zo'rlik sharoitida tarbiyalangan bolalar shaxsining deformasiyasi kuzatiladi. Do'stona bo'lmagan, zulmkor sharoit o'ziga-o'zi bo'lgan bahoning pastligiga olib keladi. Xo'rlanish, jazolash, qo'rqitish, jismoniy zo'rlik ob'ekti bo'lgan kichkina bola o'zini istalmagan va sevilman his eta boshlaydi, o'ziga nisbatan dushmanlik va nafrat bilan munosabatda bo'ladi. Istalmaganlikni sezish unda o'zining mavjudligidan uyalish va aybdorlik xissini uyg'otadi. Shuning uchun bunday bolalar nimagadir kerak bo'lish uchun ham zo'rliklarga qarshilak qilmaydi. Shunday qilib, emotsional zo'rlik qurboni bo'lgan bola u yomonligi, hamma sohada qobiliyatsizligi fikri bilan o'sadi. Keyinchalik u o'zlashtirgan xulq patternini o'z hayotida, o'z bolalari bilan munosabatda ham qo'llaydi.

3. Beshafqat munosabatlarga duch kelgan bolalar buy yoki og'irligi bilan tengdoshlaridan ortda qoladilar. Ular kechroq yura boshlaydilar va gapiradilar, kam kuladilar, maktabda ham sezilarli ortda qoladilar. Bunday bolalarda ko'pincha "be'mani odatlar" kuzatiladi: barmoqlarini so'rish, tirnoq tishlash, qimirlash (tebranish) kabilar.

4. Ehtiyojlari va qiziqishlari qondirilmagan bolalar tashqi ko'rinishi ham boshqacha bo'ladi: ko'zlari ishgan, uyqusiragan, rangsiz yuz, taralmagan, yuvilmagan soch, tartibsiz kiyim, pedikulyoz toshmalar, kiyim va badandagi yoqimsiz hidlar.

Mobbingning yuqoridagi turlari va maktabdagi zuravonliklar bolani ruhan izdan chiqarishi mumkin. Muttasil davom etgan kamsitilishlar, bolaning xali chiniqib ulgurmagan ruhiyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mobbing bilan uning ilk bosqichlaridayoq jiddiy kurashish lozim. Bola sinfdoshlari yoki o'qituvchisi tomonidan qanchalik uzoq va qattiq taxqirlansa, keyinchalik yana jamoaga qayta qo'shilishi yoki yangi jamoaga moslashishi shunchalik sekin va qiyin kechadi. Bolalikdagi taxqirlarning asoratlari qurbonning kelajakdagi hayotida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ota-onalar muammoni aniqlashlari va bolani bu holatdan qutqarishlari lozim.

Mutaxasislarning olib borgan tadqiqotlariga ko'ra mobbing yoki maktabdagi zo'ravonlik ba'zi hollarda o'z joniga qasd qilish ya'ni suitsid bilan yakunlanishi mumkin. Shuning uchun bir qator rivojlangan mamalatlarda maktab mobbingi muammolari bilan davlat siyosati darajasida kurashiladi. Masalan, Shvetsiyada maktab bolalari uchun o'zaro muloqot qilishning maxsus qoidalari ishlab chiqilgan va bu qoidalar bolalar orasida keng targ'ib qilinadi, o'rgatiladi. Tanaffuslar vaqtida o'qituvchilar maktab hovlisida bolalarni hushyorlik bilan kuzatadilar, nizo chiqqanda esa o'qituvchilar bolalarni himoya qilishga va muammoni bartaraf etishga majburdirlar.

Mobbingga duchor bo'lgan bolani qanday aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- bola sababini aytmay maktabga borishdan bosh tortadi;
- o'z xonasiga qulflangan bolishni ma'qul ko'radi;
- bolaning o'zlashtirishi keskin pasayib ketadi, xatto eng sevimli fanlaridan ham doim yomon baho ola boshlaydi. Bola har doim yomon, tushkun kayfiyatda bo'ladi, kam kuladi;

- ota-onasi va yaqinlari bilan gaplashishni istamaydi;
- ishtaxaning yo'qolishi;
- real hayotdan internet olamiga ketish;
- jismoniy faollikning kamayishi;
- hayotning mazmuni haqida og'ir ruhiy mulohaza yuritish;

Yuqoridagi belgilarning barchasi ota-onalar va pedagog-psixologlarni sergaklikka chaqirishi lozim. Buning uchun ularga malakali pedagog-psixolog xodimlar samarali yordam berishlari mumkin.

Mobbingda tez psixologik yordam berish zarur va bunda:

- 1) bolaning hayotida uning g'ashiga tegmas darajada ishtirok eting;
- 2) farzandingizning sinf rahbari bilan u haqida suhbatlashing;
- 3) bolani ayblamang;
- 4) mobbing qurboni va dilozorlarni yuzlashtirmang;
- 5) bolada salbiy sifatlarni tarbiyalamang (nafratlanish, o'ch olish, qasos olish kabi);
- 6) bolani psixolog qabuliga olib boring.

Maktabdagi zo'ravonlikka duch kelgan bolalarga konsultasiya berish jarayonida bola bilan kontakt o'rnatish psixolog uchun muhim. Bunda doimo bola haqida mehribonchilikni namoyon etishga urg'u berish lozim. Bola adekvat yoki noadekvat usullar bilan psixolog qanchalik u haqida qayg'urayotganini doimo tekshirib boradi. Bu vaziyatda psixolog oldida turgan vazifalar quyidagilardan iborat:

- Bolada uyat, ayb, kuchsizlik xissini kamaytirishga urinish;
- O'zining kerakligi haqidagi xislarni mustahkamlashga yordamlashish;
- Yangi xulq-atvor patterini shakllantirish;
- Atrofdagi odamlar bilan o'zaro aloqaga kirishishga yordamlashish;
- Bola o'z-o'zini anglashini rivojlantirish, o'z "men"ini shu qatorda jismoniy "men" obrazini qabul qilishga yordam berish.

Konsultasiyaning o'tkazish seanslari zo'ravonlik davom etgan vaqt davomiyligiga bog'liq. Uzoq vaqt davom etgan zo'ravonlik uzoq olib boriladigan

psixologik reabilitasiya ishini talab etadi. Shuningdek, bu jarayonga faqatgina bola emas, balki bolaning butun oila a'zolari ham jalb qilinadi.

Mutaxassislar bunday bolalar bilan ishlashda vizual, kognitiv xulq-atvor terapiyasi, geshtaltterapiya, psixodramma, art-terapiya, musiqa terapiyasi, raqs terapiyasidan foydalanganlari samaralidir. Amaliy psixologik ish olib borishda aniq metodni tanlash quyidagilarga bog'liq:

1. bolaning yoshiga;
2. konsultasiya bosqichlari, ya'ni ayni damda nima bo'yicha ish olib borayotganligiga: hayollar, emosiyalar va xulq-atvor;
3. bolaning kognitiv rivojlanish darajasiga.

Konsultasiyani o'yinli yoki formal bo'lmagan xona sharoitida o'tkazish lozim. Bu zo'riqishni bartaraf etilishiga, himoyalanganlik xissini kuchayishiga va vaziyatni nazorat qilishga olib keladi. Agar bolalar o'zi vakattalar orasidagi masofani nazorat qila olsalar konsultasiya jarayoni muvaffaqiyatliroq kechadi.

Konsultasiya uchun umumiy tavsiyalar quyidagilardan iborat:

1. Muammoni faol tinglash vositasida aniqlash;
2. Bolaning kutishlarini aniqlashtirish;
3. Muammoni yechish uchun tashlangan qadamlarni aniqlash;
4. Muammoni yechishning yangi yo'llarini qidirish;
5. Yechimlarning birini amalda qo'llashga kelishish;
6. Yakunlash (qanday o'zgarishlar yuz berganini, kelajak rejalarni aniqlash).

Bolaga yordam berishda bolaning aytgan gaplarini emas, balki ularni aytayotganda nimani his qilganini aniqlash lozim. Bolaga yordam berish jarayonida ko'p psixologlar haddan tashqari to'g'ri va ochiq savollar bilan murojaat qiladilar.

Bolalar bilan guruhiiy psixoterapiya o'tkazish ham yordam beradi. Guruhiiy muhokama va mashqlar bolalarga kimga ishonishlari mumkinligi va kimdan ehtiyot bo'lishlari kerakligini aniqlab olishga yordam beradi. Biroq, jinsiy zo'ravonlikni boshidan o'tkazgan bolalar bilan guruhiiy psixologik maslahat ishlarini olib borishda juda ehtiyotkor bo'lmoqlari lozim, chunki ular o'z hissiyotlarini guruhga aytishlari uchun jarohatlari xali juda yangi bo'lishi mumkin.

Terapiyaning vazifasi nafaqat jinsiy zo'ravon tomonidan bolaga yetkazilgan psixologik jarohatni yengib o'tishga yordam berish, balki unda yoshga mos hayotiy malakalarni shakllantirishi ham ko'zda tutadi. Guruhiiy terapiya jarayoni bolani ijtimoiylashuviga yo'naltirib, bolada o'zini nazorat qilishni va jamiyatda tan olingan normalarga mos tarzda o'zini tutishni rivojlantirishdir.

Guruhiiy mashg'ulotlarda qatnashish o'z-o'ziga bohoni oshiradi. Aynan jinsiy zo'ravonlik qurboni bo'lgan bola bilan guruhiiy ishlash davomida, psixoterapevt bolaga faqatgina u shunday qo'rquv va shubhaniboshdan kechirmayotganini ko'rsatib berishi oson kechadi. Bolalarda tinch va ijobiy sharoitda o'zining qarama-qarshi hissiyotlarini aniqlashtirib olish imkoni paydo bo'ladi.

References:

1. Donald K. Bnutrenniy mir tramvi. Ekaterenburg, "Delovaya kniga", 2000
2. Kinard E.M. Deti, stradayushie ot ploxogo obrasheniya // Ensiklopediya sotsalnoy raboti. M.: Sentr o chelovecheskix sennosteyy, 1993. T. 202-209 betlar. Badxen



A.A. Metodicheskoe posobie po rabote s posttramaticheskim stressovim rasstroystvom.
Mixaylova T.I., Pevzner M.M. SPb., in-t GARMONIYA, 2001.